

**VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD 06/29.10.2021.V.139.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**XUSHNAZAROV ALISHER XUDOYBERDI O‘G‘LI**

**QUYON EYMERIOZINING TARQALISHI, DIAGNOSTIKASI VA  
KIMYOPROFILAKTIKASI**

03.00.06-Zoologiya  
(*veterinariya fanlari*)

**Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand-2025**

**Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление диссертации доктора философии (PhD) по ветеринарным  
наукам.**

**Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences**

**Xushnazarov Alisher Xudoyberdi o‘g‘li**

Quyov eumeriozining tarqalishi, diagnostikasi va  
kimyoprofilaktikasi..... 3

**Хушназаров Алишер Худойберди угли**

Распространение, диагностика и химиопрофилактика эймериоза  
кроликов.....21

**Khushnazarov Alisher Khudoyberdi ugli**

Distribution, diagnosis and chemoprophylaxis of eimeriosis in rabbits.....39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD 06/29.10.2021.V.139.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**XUSHNAZAROV ALISHER XUDOYBERDI O‘G‘LI**

**QUYON EYMERIOZINING TARQALISHI, DIAGNOSTIKASI VA  
KIMYOPROFILAKTIKASI**

03.00.06-Zoologiya  
(*veterinariya fanlari*)

**Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand-2025**

**Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/V83 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengash veb sahifasida ([www.viti.uz](http://www.viti.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Davlatov Ravshan Berdiyevich**  
veterinariya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Gafurof Aktam Gafurovich**  
veterinariya fanlari doktori, professor

**Kurbanov Feruz Enatillayevich**  
veterinariya fanlari falsafa doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi  
L.M.Isayev nomidagi mikrobiologiya, virusologiya,  
yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy tadqiqot  
institutini**


Dissertatsiya himoyasi Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 06/29.10.2021.V.139.01 raqamli ilmiy Kengashning 2025-yil 18.03 soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 141500, Samarqand viloyati, Toyloq tumani, Charog'bon MFY, Yangi Toyloq 1 qishlog'i 67 uy. Tel.: (+9966) 666 56 30; faks: (+9966) 666-56-76; e-mail: [nivi@vetgov.uz](mailto:nivi@vetgov.uz))

Dissertatsiya bilan Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (4703 - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 141500, Samarqand viloyati, Toyloq tumani, Charog'bon MFY, Yangi Toyloq 1 qishlog'i 67 uy. Tel.: (+9966) 666 56 30; faks: (+9966) 666-56-76; e-mail: [nivi@vetgov.uz](mailto:nivi@vetgov.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "05" 03.25 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "05" 03 dagi 7 -raqamli reestr bayonnomasi)



  
**B.A. Elmurodov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
vet.fan doktori, professor

  
**F.S. Pulotov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, vet.f.f.d., katta ilmiy xodim

  
**G.H. Mamadullayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, vet.fan  
doktori, katta ilmiy xodim

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyo aholisini chorvachilik mahsulotlariga, jumladan, quyvon go'shti, undan tayyorlanadigan parhez oziq-ovqat, jun va teri xom ashyolariga, bo'lgan talabi yildan-yilga oshib bormoqda. Ushbu talabni qondirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, quyvon go'shti ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish muhim vazifa hisoblanadi. «Eymerioz bilan quyvonlar kasallanganda davolash ishlari o'z vaqtida olib borilmasa 15-20 kun ichida quyvonlarning 90 foizi nobud bo'ladi»<sup>1</sup>. Shunga ko'ra, turli hududlardagi quyvonlarning invazion kasalliklarini aniqlash, davolash va oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo miqyosida quyvonchilik fermalari va aholi qaramog'idagi quyvonlardan samarali foydalanish texnologiyalarini ishlab chiqish, quyvon mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirish, intensiv quyvonchilikni jadal rivojlantirish hisobigagina quyvonchilikda rentabellikni oshirilishiga erishildi. Bu borada, yer yuzining turli mintaqalarida quyvonchilik fermalarida ko'paytirilayotgan turli zotdagi quyvonlar alohida ahamiyatga ega. «Shu boisdan, turli quyvon zotlarida uchraydigan parazitlarni o'z vaqtida aniqlash, samarali davolash va profilaktika tadbirlarini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi»<sup>2</sup>.

Mamlakatimizda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish hisobiga oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ishlab chiqarishning zamonaviy usullarini keng joriy etish, bu orqali qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish, chorvachilik sohasi va tarmoqlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, mazkur sohada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida: chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarining joriy holati tahlil qilinganda Respublikamizda 254 ta quyvonchilik xo'jaligi faoliyat yuritayotganligi ilg'or xorijiy tajriba asosida chorvachilik sohasining quyvonchilik tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar salmog'ini oshirish, quyvon go'shti mahsulotlarining ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish hamda mahalliy mahsulotlarni xalqaro sifat talablariga moslashtirish, quyvon go'shti tavsiya etilgan minimal iste'mol me'yorlarini qayta ko'rib chiqish, shuningdek, aholining sog'lom ovqatlanish madaniyatini oshirish, quyvonchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish hamda kooperatsiya tizimi asosida mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish lozimligiga davlat siyosati darajasida qaralmoqda.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi<sup>3</sup> farmoni, 2020-yil 29-yanvardagi PQ-4576-sonli «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022-yil 8-fevraldagi PQ-121-son

<sup>1</sup> Сидоркин В. // Паразитарные болезни кроликов. Москва. Аквариум-2010. 7-13 б.

<sup>2</sup> Ro'ziev R.I., Xidirov K.I., Elmurodov B.A, va boshqalar. // Tomorqa va yer egalari uchun quyvon boqish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent-2019. 41-42 b.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi<sup>3</sup> farmoni

«Chorvachilikni yanada rivojlantirish va oziqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022-yil 31-martdagi PQ-187-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi, 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-son «O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Quyonlarning invazion kasalliklari, xususan quyon eymeriozi, kasallikning kelib chiqish sabablari, etiologiyasi, epizootologiyasi, kechish xususiyatlari, davolash va oldini olish usullarini ishlab chiqish bo'yicha uzoq xorijiy mamlakatlarda P.Augustine, Z.Cerna, D.J.Doran, D.S.Dougald, B.S.Gill, H.N.Ray, I.Hollands, A.A.Kasim, D.C.Nayak, M.E.Rose kabi olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va ilmiy-amaliy natijalarga erishilgan bo'lsa, MDH davlatlari olimlaridan V.F.Abramova, K.I.Abuladze, K.X.Agaev, M.Sh.Akbaev, V.A.Aleksandrov, S.V.Burlakov, D.V.Vasileva, I.I.Vershinin V.A.Gerasimchik, E.X.Daugalieva, J.F.Dzaumameluna, I.S.Dondukov, A.F.Evtushenko, G.M.Kamaletdinova, E.M.Romanova, G.A.Kotelnikov, N.M.Lapshin A.I.Mayorov, A.F.Manjos, M.A.Musaev, N.P.Orlov R.V.Petrov S.A.Pleshakov, A.N.Ponomarenko, V.P.Ryutova S.K.Svanbaev A.I.Yatusevichlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Respublikamiz olimlaridan quyonlar eymeriozining tur tarkibi bo'yicha L.I.Irgasheva, boshqa hayvonlar eymeriozlarining epizootologiyasi, davolash, profilaktika chora-tadbirlari bo'yicha I.X.Irgashev, T.X.Raximov, R.B.Davlatov, D.I.Ibragimov, A.N.Xudjamshukurovlar, quyonlarda uchraydigan boshqa yuqumli va yuqumsiz kasalliklar bo'yicha B.A.Elmurodov, S.B.Eshburiyev, A.K.Turdiyev, N.A.Nabiyeva, U.T.Qarshiyev, B.B.Ibragimovlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ammo so'nggi yillarda quyonlar eymeriozi bo'yicha maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqotlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining quyonchilik xo'jaliklari bilan hamkorlikda tuzilgan xo'jalik shartnomalari (Shartnoma №1. 01.05.2021 y. va №12. 10.09.2021 y) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** quyonlar eymeriozining tarqalishi, kasallikning mavsumiy dinamikasi va diagnostikasi hamda kasallikka qarshi zamonaviy eymeriostatik vositalarni sinovdan o'tkazib, kimyoprofilaktika usullarini takomillashtirishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

quyon eymeriozining yil fasllariga bog'liq ravishda tarqalish darajalarini aniqlash;

turli zotli quyonlarning eymerioz bilan zararlanish darajasini aniqlash;

quyon eymeriozi bilan zararlanishda organizimda kelib chiqadigan gematologik va patologoanatomik o'zgarishlarni aniqlash;

quyon eymeriozidan kelib chiqadigan iqtisodiy zararni aniqlash, samarali davolash va kimyoprofilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Samarqand va Farg'ona viloyatlarining quyonchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari sharoitida va aholi qo'lida urchitilayotgan turli zot va yoshdagi quyonlar, zamonaviy eymeriostatik vositalar, tarkibi boyitilgan granulalangan omuxta yem olingan.

**Tadqiqotning predmeti** eymerioz bilan spontan zararlangan quyonlarning tezak namunalari, eymeriya oosistalari, qon namunalari, eymeriostatik guruhga mansub dori vositalaridan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Ilmiy-tadqiqotlarni bajarishda umumiy qabul qilingan epizootologik, klinik, parazitologik, gelmintologik, koprologik, mikroskopik, gematologik, patologoanatomik va statistik usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

quyonlar eymeriozining tarqalishi yil mavsumlari bo'yicha o'rganilganda bahorda 65,0 %, yozda 40,0 %, kuzda 35,0 %, qish faslida esa 75,0 foizni tashkil etishi aniqlangan;

turli zotli quyonlarda eymeriozning invaziya ekstensivligi xikol zotli quyonlarda 52,7%, kaliforniya zotida 49,0%, velikan zotida 56,3% va shinshilla zotli quyonlarda esa 60,0 % ekanligi aniqlangan;

quyonlar eymeriozining gematologik va patologoanatomik tekshirishlarga asoslangan tashxis usullari ishlab chiqilgan, bunda eritrositlar me'yorga nisbatan 0,6 mln/mkl ga, gemoglobin 18 g/l ga, umumiy oqsillar 16,7 g/l ga, glukoza 1,7 mol/l ga kamayishi, leykotsitlar esa 4,85 ming/mkl ga ortishi hamda patologoanatomik tekshirilganda ko'richakning kuchli yallig'lanishi aniqlangan;

quyonlar eymeriozini davolashda intracox oralni 1ml/l suvga qo'llaganda preparatning samaradorligi 95 foizni va eymeriozga qarshi indeks esa 190 ballni tashkil etishi aniqlangan;

quyonlarni eymeriozdan samarali davolash va kimyoprofilaktika chora-tadbirlari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Respublikadagi fermer xo'jaliklari va aholi qaramog'idagi quyonchilik xo'jaliklarida quyonlar eymeriozining epizootologiyasi va tarqalish sabablari aniqlangan;

quyonlarning turli yoshiga nisbatan eymeriyalar bilan zararlanishi, invaziyaning ekstensivlik ko'rsatkichlari hamda kelib chiqish sabablari, kechish xususiyatlari va klinik belgilari o'rganilgan;

quyonlarda eymeriozning yil fasllari, quyon zoti va yoshiga oid tarqalish darajalari o'rganilgan va gematologik tekshirishlarga asoslangan tashxis usullari ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan;

quyonlar eymeriozini davolashda va kimyoprofilaktikasida zamonaviy eymeriostatik vositalarni qo'llash chora-tadbirlari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tekshirishlarning zamonaviy uslub va vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, birlamchi ma'lumotlarga ishlov berish va ilmiy tahlil qilish, olingan nazariy natijalarning tajriba ma'lumotlari bilan to'g'ri kelishi, shaxsiy tadqiqot natijalari hamda xorijiy va mahalliy tajribalar chuqur ilmiy tahlil etilganligi, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti aprobatsiya komissiyasi tomonidan ilmiy tadqiqot va birlamchi materiallarga ijobiy baho berilganligi, ilmiy natijalarning ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fermer xo'jaliklaridagi va aholi qaromog'idagi quyonchilik xo'jaliklarida quyon eymeriozining epizootologik xususiyatlari, kasallikning klinik kechishi, ayrim yangi antieymeriy va vitaminli komplekslar sinovdan o'tkazilganligi, quyonlar organizmidagi gematologik va biokimyoviy o'zgarishlari tahlil qilinib, preparatlarning samaradorligi nazariy jihatdan asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati quyonlar orasida keng tarqalgan parazitar kasalliklarda quyonchilik xo'jaliklarida antieymeriy preparatlar va vitaminli komplekslar qo'llanilishi natijasida quyonlarning davolanib sog'ayishi, hayotchanligi ortishi, o'sish va rivojlanishining yaxshilanishi, tana vazni ortishi, ularni kasalliklarning oldini olishda qo'llash evaziga mahsuldorlik ortishiga erishilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Quyon eymeriozining tarqalishi, diagnostikasi va kimyoprofilaktikasi bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

“Quyon eymeriozining diagnostikasi va kimyoprofilaktikasi” bo'yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 17-dekabr 02/23-723-son ma'lumotnomasi). Natijada quyonlar eymeriozining kelib chiqish sabablari, simptom va sindromlarini koprologik tekshirishlar asosida aniqlash orqali diagnostika hamda zamonaviy kimyoprofilaktika qilishga erishilgan;

Eymerioz bilan kasallangan quyonlarga intracox oral eymeriostatik preparati Samarqand viloyatining quyonchilikka ixtisoslashgan “Maqsudabonu Biznes Servis” va “Bo'riboy Mustayev” xo'jaliklarida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 17-dekabr 02/23-723-son ma'lumotnomasi). Natijada preparatning eymeriozga qarshi indeksi 190 ballni tashkil etishiga va sarf qilingan 1 so'm hisobiga, 5 so'm 29 tiyin iqtisodiy samara olishga erishilgan;

Samarqand va Farg‘ona viloyatlaridagi quyonchilik fermer xo‘jaliklarida quyonlar orasida keng tarqalgan eymerioz kasalligiga qarshi amprolium plyus antieymeriy preparati va chiktonik vitamin qo‘shimchalarining kompleksi joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2024-yil 17-dekabr 02/23-723-son ma‘lumotnomasi). Natijada quyonlarning 100 foiz sog‘ayishi, hayotchanligining ortishi, o‘sish va rivojlanishning yaxshilanishi, tana vaznining kunlik o‘rtacha o‘sish 30,12 grammga ortishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqotlar natijalari jami 7 ta, shu jumladan 4 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shu jumladan 4 tasi Respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan, olingan natijalar asosida 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

**Dissertatsiya‘ning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, mavzuning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Adabiyotlar ma‘lumotlarining tahlili”** deb nomlangan birinchi bobi to‘rt qismdan iborat bo‘lib, **“Quyon eymeriozining o‘rganilish tarixi, tabiatda tarqalishi va tur tarkibi”** deb nomlangan birinchi bandida quyon eymeriozlarining umumiy tavsifi, o‘rganilish tarixi, rivojlanish bosqichlari, tarqalishi, uning keng tarqalgan turlariga oid dunyo olimlarining ilmiy tadqiqot ishlari natijalari keltirilgan. **“Eymeriozning klinik belgilari, mavsumiy dinamikasi va diagnostikasi”** deb nomlangan ikkinchi bandida olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlili asosida turli fasllarda quyon eymeriyalarining uchrash ko‘rsatkichlari, kasallik turlarining tarqalish darajalari va kasallikning ichak, jigar va aralash formalari keng tarqalganligi haqida batafsil ma‘lumotlar bayon qilinib, undan tashqari quyon eymeriozi respublikamiz hududi, MDH hamda uzoq xorijiy davlatlarda ham keng tarqalgan bo‘lib, muhim epizootologik ahamiyatga ega ekanligi to‘g‘risida olimlarning tadqiqot natijalari

keltirilgan. “Quyvon eymeriozining patogenezi, patologoanatomik o‘zgarishlari” deb nomlangan uchinchi bandida xorij va Respublikamiz olimlarining eymerioz bilan zararlangan quyvonlar organizmida kasallik patogenizining rivojlanish bosqichlari va kasallikdan nobud bo‘lgan quyvonlarda patologoanatomik o‘zgarishlar asosida olingan xulosalari bo‘yicha keng mazmundagi ma‘lumotlar keltirilgan. “Quyvon eymeriozini davolashda samarali vositalarni qo‘llash va kimyoprofilaktikasi” deb nomlangan to‘rtinchi qismida veterinariya amaliyotida quyvon eymeriozini davolashda an‘anaviy preparatlar: furazolidon, sulfadimezin, norsulfazol bilan ftalazol, zoalen, levomitsetin, fenotiazin, natriy ftorid preparatlaridan keng miqiyosda foydalanib kelinganligi hamda yaxshi samara berishi bo‘yicha olimlarning ilmiy ishlari ma‘lumotlari keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot materiallari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar joyi, ob‘ekti va uslublari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Xususan, ilmiy tadqiqot ishlarining eksperimental qismi 2021-2024-yillar davomida Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi “Maqsudabonu biznes servis” xususiy korxonasi, Bulung‘ur tumanidagi “Bo‘riboy Mustayev zamin nur” fermer xo‘jaligi, Pstdarg‘om tumanidagi “Go‘zalkent dostoni” Davlat unitar korxonasi, Farg‘ona viloyatining Toshloq tumanidagi “Halol quyvon naslli chorvasi” mas‘uliyati cheklangan jamiyatida tashkil etilgan quyvonchilik xo‘jaliklarida o‘tkazilgan. Quyvonchilik xo‘jaliklarida 2021-2024-yillar davomida jami bo‘lib 1382 bosh xikol, kaliforniya, velikan va shinshilla zotli quyvonlarda tadqiqotlar o‘tkazilgan, quyvonlarda invaziyaning tarqalishi, sabablari, rivojlanish xususiyatlari, klinik belgilari, qondagi gematologik o‘zgarishlar, patologoanatomik o‘zgarishlar, xo‘jaliklarga keltiradigan iqtisodiy zarari tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Xususiy tadqiqotlar”** deb nomlangan uchinchi bobining “Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida eymeriozning quyvon zotlari orasida tarqalishini o‘rganish borasida olib borilgan tadqiqotlar natijalari” deb nomlangan birinchi bandida Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanida joylashgan “Bo‘riboy Mustayev zamin nur” fermer xo‘jaligida parvarishlanayotgan har xil zotli quyvonlarda tadqiqotlar olib borilgan, tekshirish ishlari davomida quyvonlardan tezak namunalari olinib, universitetning “Zooparazitologiya” laboratoriyasida koprologik (Darling) usulida tekshirilgan.


Xikol zotli quyvonlarni 55 boshining tezak namunalari tekshirilganda, ularning 29 tasida eymeriya oosistalari mavjudligi, invaziyaning ekstensivligi 52,7% ni tashkil etishi aniqlangan.

Kaliforniya zotli quyvonlarni 55 boshi tekshirilganda, ularning 27 boshida eymeriya oosistalari mavjudligi qayd etilib, invaziyaning ekstensivligi 49,0% ekanligi aniqlangan.

Ushbu fermada asralayotgan velikan zotli quyvonlarning 55 boshi tekshirilganda, ularning 31 boshida eymeriya oosistalari mavjudligi kuzatilib, invaziyaning ekstensivligi 56,3% ni tashkil etishi kuzatilgan.

Xo‘jalikda shinshilla zotli quyvonlar ham parvarish qilinib, koprologik tekshiruv jarayonida namuna olingan 55 bosh quyvonning 33 tasida eymeriya

oosistalari mavjudligi aniqlanib, invaziyaning ekstensivligi 60,0 foizni tashkil etishi qayd etilgan (1-rasm).



1-rasm. Bulung'ur tumanidagi "Bo'riboy Mustayev zamin nur" f/x quyonlar eymeriozining koprologik tekshirish natijalari (invaziyaning ekstensivligi).


Xulosa qilganda, xo'jalikdagi jami 220 bosh quyonlarning 120 boshida eymeriya oosistalari mavjudligi aniqlangan, invaziyaning ekstensivligi 54,5 foizni tashkil etishi qayd etilgan.

"Go'zalkent dostoni" DUK dagi quyonlarda o'tkazilgan koprologik tekshirish natijalariga ko'ra ushbu xo'jalikdagi quyonlar zotining har biridan 40 boshidan ajratilib, ularning tezak namunalari tekshirilganda xikol zotli quyonlarning 24 boshida eymeriya oosistalari mavjudligi aniqlanib, invaziyaning ekstensivligi 60% ni tashkil etishi aniqlangan.

Kaliforniya zotiga mansub quyonlarning 21 boshida eymeriya oosistalari mavjudligi qayd etilib, invaziyaning ekstensivligi 52,5 % ga teng ekanligi namoyon bo'lgan.

Velikan zotiga mansub quyonlar tekshirilganda ularning 17 boshida eymeriya oosistalari mavjudligi va invaziyaning ekstensivligi 42,5 % ni tashkil etishi aniqlangan.

Shuningdek, ushbu xo'jalikda shinshilla zotga mansub quyonlar ham mavjud bo'lib, ularning 35 boshi tekshirilganda 8 boshida eymeriya oosistalari mavjudligi va invaziyaning ekstensivligi esa 22,9 % ga teng ekanligi aniqlangan (2-rasm).



2 – rasm. Pastdarg‘om tumanidagi “Go‘zalkent dostoni” DUK da quyonglar eymeriozining koprologik tekshirish natijalari (invaziyaning ekstensivligi)


Xo‘jalikdagi xikol, kaliforniya, velikan va shinshilla zotlariga mansub quyonglarning jami 155 boshi tekshirilib, invaziyaning ekstensivligi o‘rtacha 45,1% ga teng ekanligi qayd etilgan.

Ushbu bobning ikkinchi “Quyong eymeriozining zotga va yil fasliga bog‘liqligi hamda mavsumiy dinamikasi” deb nomlangan qismida Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida quyonglar eymeriozining tarqalish darajasi, kasallikni yil fasllariga bog‘liq (mavsumiy dinamikasi) o‘rganish natijalari bayon qilingan.

Samarqand viloyati Urgut tumanidagi “Maqsudabonu biznes servis” x/k hamda Toshloq tumanidagi “Halol quyong naslli chorvasi” MCHJ lardagi xikol, kaliforniya, velikan va shinshilla zotli quyonglarda invaziyaning ekstensivligi ko‘rsatkichlari davolash ishlari olib borilmay kuzatilganda quyonglarda uchraydigan klinik holatlar kuzatilgan, zararlanish darajasini o‘rganish tajribalar asosida keltirilgan (3-rasm).

“Halol quyong naslli chorvasi” MCHJ da bir yil davomidagi tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko‘rsatdiki, fasllarning o‘rtacha ulushi ushbu xo‘jalikda tekshirilgan jami 40 bosh quyongning 20 boshida eymeriya oosistalari topilgan bo‘lib, bu invaziya ekstensivligining 50,0% ekanligini ko‘rsatadi, zararlangan 20 bosh quyonglarda davolash ishlari o‘tkazilmaganligi bois 9 boshida o‘lim holati yuz berganligi va bunda o‘lim 45,0% tashkil etilishi kuzatilgan.

Ushbu bobning “Quyong eymeriozining klinik belgilari va qonning gematologik ko‘rsatkichlari” deb nomlangan uchinchi qismida eymeriyalar bilan zararlangan xikol zotli quyonglar qonini gematologik tekshirish natijalari bahor faslining aprel oyida o‘rganilganda, eritrositlar miqdori me‘yorda sog‘lom quyonglarda 5,0-5,8 mln/mkl ni tashkil etadigan bo‘lsa, tajribadagi eymerioz bilan zararlangan quyonglarda bu ko‘rsatkich 4,8 mln/mkl ni tashkil etishi, me‘yorga nisbatan 0,6 mln/mkl ga kamayganligi aniqlangan.



3-rasm. Tashloq tumanidagi “Halol quyon naslli chorvasi” MCHJ da kaliforniya zotli quyonlarda o‘tkazilgan tajribalar natijalari

Quyonglar qonida leykotsit miqdori me’yorda sog‘lom quyonglarda 5,0-12,5 ming/mkl ni tashkil etadigan bo‘lsa, tajribalarda eymerioz bilan zararlangan quyonglarda bu ko‘rsatkich 13,5 ming/mkl ni tashkil etib, me’yorga nisbatan 4,75 ming/mkl ga ortib ketganligi kuzatilgan.

Quyonglar qonida gemogloblin miqdori esa me’yorda sog‘lom quyonglarda 105-125 g/l ming/mkl ni tashkil etib, tajribadagi eymerioz bilan zararlangan quyonglarda bu ko‘rsatkich 97 g/l ni tashkil etib, me’yorga nisbatan 18 g/l ga kamayib ketganligi kuzatilgan.

Quyonglar qonida umumiy oqsillar miqdori sog‘lom quyonglarda 62-68 g/l bo‘lsa, invaziya bilan zararlangan quyonglarda uning miqdori 48,4 g/l ga, ya’ni 16,6 g/l ga, kamayib ketganligi kuzatilgan.

Quyonglar qonida glukoza miqdori 4,16-5,27 mol/l bo‘lsa, tekshirilgan ya’ni invaziyalangan quyonglar qonida 3,1 mol/l, ya’ni me’yordan 1,61 mol/l ga kamayib ketganligi aniqlangan (1-jadval).

1-jadval

**Eymerioz bilan zararlangan quyonglar qonini 2023-yil aprel oyida tekshirish natijalari**

(“Bo‘riboy Mustayev zamin nur” f/x misolida)

T/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Me’yori	Natija
1	Eritrotsit	mln/mkl	5,0-5,8	4,9±0,32
2	Leykotsit	ming/mkl	5,0-12,5	14,1±1,12
3	Gemogloblin	g/l	105-125	99±3,4
4	Umumiy oqsil	g/l	62-68	46,7±2,11
5	Glukoza	mol/l	4,16-5,27	2,9±0,13

Eymerioz bilan zararlangan kaliforniya zotli quyonglar qonini kuz faslining sentabr oyida gematologik tekshirish natijalarida, eritrositlar miqdori me’yorda sog‘lom quyonglarda 5,0-5,8 mln/mkl ni tashkil etadigan bo‘lsa, tajribadagi

eymerioz bilan zararlangan quyonlarda bu ko'rsatkich 5,0 mln/mkl ni tashkil etib, me'yorga nisbatan 0,4 mln/mkl ga kamayganligi aniqlangan.

Quyonglar qonida leykotsit miqdori esa me'yorda sog'lom quyonlarda 5,0-12,5 ming/mkl ni tashkil etib, tajribadagi eymerioz bilan zararlangan quyonlarda bu ko'rsatkich 11,8 ming/mkl ni tashkil etishi, me'yorga nisbatan 3,05 ming/mkl ga ortib ketganligi kuzatilgan.

Quyonglar qonida gemoglobin miqdori me'yorda sog'lom quyonlarda 105-125 g/l ni tashkil etib, tajribadagi eymerioz bilan zararlangan quyonlarda bu ko'rsatkich 99 g/l ni tashkil etishi, me'yorga nisbatan 16 g/l ga kamayib ketganligi kuzatilgan.

Quyonglar qonida umumiy oqsillar miqdori sog'lom quyonlarda 62-68 g/l bo'lsa, invaziya bilan zararlangan quyonlarda uning miqdori 48,9 g/l ga, ya'ni 16,1 g/l ga kamayib ketganligi kuzatilgan.

Quyonglar qonida glukoza miqdori 4,16-5,27 mol/l bo'lsa, invaziyalangan quyonglar qonida 3,1 mol/l, ya'ni me'yordan 1,6 mol/l ga kamayib ketganligi aniqlangan (2-jadval).

## 2-jadval

### Eymerioz bilan zararlangan quyonglar qonini 2023-yil sentabr oyida tekshirish natijalari ("Halol quyong naslli chorvasi" MCHJ misolida)

t/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Me'yori	Natija
1	Eritrotsit	mln/mkl	5,0-5,8	4,8±0,23
2	Leykotsit	ming/mkl	5,0-12,5	13,6±0,97
3	Gemoglobin	g/l	105-125	97±3,12
4	Umumiy oqsil	g/l	62-68	48,3±2,18
5	Glukoza	mol/l	4,16-5,27	3,0±0,25

Ushbu bobning to'rtinchi "Quyonglar eymeriozida aniqlangan patologoanatomik o'zgarishlar" qismida Bulung'ur tumanidagi "Bo'riboy Mustayev zamin nur" fermer xo'jaligida turli zotli quyonglarda patologoanatomik va to'liq parazitologik yorib ko'rish usuli bilan tekshirganda yilning bahor faslida xikol zotli quyonglarda 4 bosh, kaliforniya zotli quyonglarda 2 bosh, velikan zotli quyonglarda 1 boshida o'lim holati sodir bo'lganligi, shinshilla zotga mansub quyonglarda o'lim holati kuzatilmaganligi, jami 7 bosh quyonda o'lim sodir bo'lgan bo'lsa, ularning ikkitasi, ya'ni 28,57%, eymeriozning jigar shakli bilan zararlanib nobud bo'lganligi, 3 boshi, ya'ni 42,85%, eymeriozning ichak shakli bilan zararlanganligi, qolgan ikki boshi, ya'ni 28,57%, eymeriozning aralash shakli bilan nobud bo'lganligi aniqlangan.

Velikan zotiga mansub sutdan ajratilgan yosh quyonglardan ham har faslda 10 boshdan tanlanib, tezak namunalari koprologik usulda tekshirilganda, jami 40 bosh quyongning 27 boshida eymeriya oosistalari topildi, invaziyaning ekstensivligi 67,5% ni tashkil etishi aniqlandi. Ushbu quyonglarda davolash ishlari amalga oshirilmaganda 10 kundan so'ng ularning 4 tasi nobud bo'ldi, ya'ni o'z vaqtida davolash ishlari olib borilmasligining oqibatida 14,81 % quyong nobud bo'lishiga olib kelishi aniqlangan.


Bulung'ur tumanidagi nosog'lom "Bo'riboy Mustayev zamin nur" fermer

xo‘jaligida bahor faslidagi tadqiqotlarda tekshiruvdan o‘tkazilgan 10 bosh velikan zotli quyonlarning 7 boshi zararlanganligi aniqlanib, invaziya ekstensivligi 70 % ni tashkil etdi. Davolash ishlari olib borilmagan tajriba guruhidagi eymeriya bilan zararlangan 7 bosh quyonning 1 boshida, ya’ni 14,8 % ida, o‘lim kuzatilib xo‘jalikka keladigan iqtisodiy zararning xavf darajasini yaqqol aks ettirgan.

Yoz faslida tekshiruvdan o‘tkazilgan 10 bosh velikan zotli quyonlarning 5 boshi eymeriya oosistalari bilan zararlanib, invaziya ekstensivligi 50 % ni tashkil etdi. Davolash ishlari olib borilmagan yozdagi tajriba guruhidagi eymeriya bilan zararlangan 5 bosh quyonning birortasida o‘lim kuzatilmagan.

Kuz faslida o‘tkazilgan tekshiruvlarda aniqlanishicha, 10 bosh velikan zotli quyonlardan 6 boshi eymeriya qo‘zg‘atuvchilari bilan zararlanib, invaziya ekstensivligi 60 foizini tashkil etdi. Davolash ishlari olib borilmagan tajriba guruhidagi eymeriya bilan zararlangan 6 bosh quyonning 1 boshida, ya’ni 16,66 foizida, o‘lim kuzatilib, kuz oylarida kasallik bilan zararlanish va o‘lim darajasining uchrashi bo‘yicha qolgan fasllarga nisbatan o‘rtacha ko‘rsatkichda namoyon etgan.

Qish faslida tekshiruvdan o‘tkazilgan 10 bosh velikan zotli quyonlardan 9 boshi eymeriya qo‘zg‘atuvchilari bilan zararlanib, invaziya ekstensivligi 90% ni tashkil etib, davolash ishlari olib borilmagan tajriba guruhidagi eymeriya bilan zararlangan 9 bosh quyonning 2 boshida, ya’ni 22,22% ida, o‘lim kuzatilib, qish oylarida kasallik bilan zararlanish va o‘lim darajasining uchrashi bo‘yicha qolgan fasllarga nisbatan eng yuqori ko‘rsatkichni namoyon etdi (4 - rasm). Ammo xikol va kaliforniya zotli quyonlarga nisbatan velikan zotli quyonlarning eymerioz kasalligiga chidamliligi yuqoriroq ekanligi tajribalarda aniqlangan.



4- rasm. Bulung‘ur tumanidagi “Bo‘riboy Mustayev zamin nur” f/x da velikan zotli quyonlarda eymeriozning mavsumiy dinamikasi

Jami nobud bo'lgan 25 bosh quyoning 13 boshi xikol zotiga, 7 boshi kaliforniya zotiga, 4 boshi velikan zotiga va 1 boshi shinshilla zotga to'g'ri kelganligi, kasallikning uchrash darajasida eymeriozning jigar shakliga 24,0 %, ichak shakliga 44,0% va aralash shakldagi eymeriozda esa 32,0% ga to'g'ri kelishi aniqlangan (3-jadval).

**3-jadval**

**“Bo‘riboy Mustayev zamin nur” f/x da quyonlarni patologoanatomik tekshirish natijalari**

№	Yil fasllari	Quyion zoti					Kasallikning uchrash shakli					
		xikol	kaliforniya	velikan	shinshilla	jami	jigar		ichak		aralash	
							soni	%	soni	%	soni	%
1	Bahor	4	2	1	-	7	2	28,57%	3	42,85	2	28,57
2	Yoz	1	1	0	-	2	-	-	1	50,0%	1	50,0%
3	Kuz	2	1	1	-	4	1	25,0%	2	50,0%	1	25,0%
4	Qish	6	3	2	1	12	3	25,0%	5	41,66%	4	33,33%
5	<b>Jami</b>	<b>13</b>	<b>7</b>	<b>4</b>	<b>1</b>	<b>25</b>	<b>6</b>	<b>24,0%</b>	<b>11</b>	<b>44,0%</b>	<b>8</b>	<b>32,0%</b>

Dissertatsiyaning “**Quyionlar eymeriozini davolash va kimyoprofilaktikasi**” deb nomlangan to‘rtinchi bobining “Quyionlar eymeriozini davolashda yangi eymeriostatiklarning davolash samaradorligi” deb nomlangan birinchi qismida ushbu kasallikni davolashda bajarilgan tajribalarda quyionlar analoglar qoidasi asosida 4 guruhga: 1-sog‘lom nazorat guruhi; 2- kasallangan nazorat guruhi; 3 va 4 - tajriba guruhlariga ajratildi (4-jadval). Tekshiruvlar davomida har bir guruhga 25 boshdan quyionlarni ajratilib, klinik, parazitologik, mikroskopik tekshirilgandan so‘ng, eymerioz aniqlangan 3-4-guruh quyionlariga quyidagi eymeriostatik dorilar sinovdan o‘tkazilgan.

Ushbu bobning “Quyionlar eymeriozini davolash va kimyoprofilaktika qilish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalar natijalari” nomli ikkinchi qismida sog‘lom nazorat guruhidagi (1-guruh) quyionlar orasida eymeriozga xos klinik belgilar kuzatilmagan, aksincha sog‘lom rivojlanish davom etgan. Quyionlarning saqlanuvchanligi 100% ni tashkil qilgan. Kunlik o‘sish 38,75 gr ni tashkil etganligi aniqlangan.

Zararlantirilib davolanmayotgan nazorat guruhidagi (2-guruh) quyionlar orasida eymeriozning klinik belgilari (bezovtalanib qo‘zg‘alish va chanqoqlik) tajribaning 3- va 4- kunlaridan boshlangan bo‘lsa, 5-6- kunlarda esa quyionlar harakatining susayishi, suvga juda chanqoqlik, ishtahasizlanish, befarqlik, axlatning suyuqlashuvi, qon aralash ajralishi, ba‘zan yemga va suvga intilmaslik holatlari qayd etilib, 7 bosh quyion o‘lganligi qayt etilgan.

## 4-jadval.

**Quyov eymeriozini davolashda sinovdan o'tkazilgan dorilarning samaradorlik ko'rsatkichlari**

№ guruhlar	Guruhlar nomi	Dorilar nomi	Dori dozasi (ml/l suvga va 0,5 gr 1 kg yemga)	Guruhdagi quyov soni	Guruhdagi quyovlarning saqlanishi, %	Dori berilgach invazyaniyning intensivligi						Dorining samaradorligi %
						Tekshiruv kunlari (oosistalar soni, nusxa)						
						3 - kun	4 - kun	5 - kun	6 - kun	7 - kun	8 - kun	
1	Sog'lom nazorat guruhi	-	-	25	100	-	-	-	-	-	-	-
2	Kasal nazorat guruhi	-	-	25	60	15,6	16,9	21,6	18,6	16,4	17,2	-
3	Tajriba guruhi	Intracox oral	1 ml 1 l suvga	25	100	10,1	9,9	7,3	5,4	2	1	95
4	Tajriba guruhi	Furazolidon	0,5 g 1 kg yemga	25	95	12,2	11,9	10,8	6,8	3,2	2	75

O'lgan quyovlarning jasadida yorib ko'rilganda, eymeriozga xos patologoanatomik o'zgarishlar (jasad o'ta oriq, ko'rinarli shilliq pardalari oqish tusda, asosiy o'zgarishlar ichakda bo'lib yuqori darajada zararlangan. Ichakning kuchli yallig'lanishi va uning bo'shlig'ida ivigan qon laxtalari, shilliq qavatida ko'p sonli mitti tugunchalar) aniqlandi. Tajriba oxirida esa quyovlarning saqlanuvchanligi 30% ga, kunlik vaznning o'rtacha ortishi 13,75 grammga teng bo'ldi. Bu ko'rsatkich eng past rivojlanish hisoblanib, xo'jalikka katta iqtisodiy zarar keltirishi aniqlangan.

3 - tajriba, ya'ni Intracox oral preparati qo'llanilayotgan, guruh quyovlari orasida eymeriozga xos ayrim belgilar kuzatildi, quyovlar orasida o'lim qayd etilmadi. Tajriba so'ngida quyovlar saqlanuvchanligi 100 foizni, kunlik tana vaznining o'rtacha ortishi 33,43 grammga, eymeriozga qarshi indeks esa 190 ballni tashkil etganligi aniqlangan.

Amprolium plus - chiktonik preparatlari qo'llanilgan, ya'ni 4 - tajriba guruhi, quyovlari orasida eymerioz alomatlari kuzatilmadi, quyovlar me'yorida oziqlanib, o'sish va rivojlanish jarayoni davom etdi. Natijada quyovlarning saqlanuvchanligi 100 foizni tashkil etgan bo'lsa, kunlik o'rtacha o'sish 30,12 grammga, eymeriozga qarshi indeks 174,8 ballga tengligi qayd etilgan (5 - jadval).

## 5 -jadval

### Eymeriostatik preparatlarning samaradorlik ko'rsatkichlari

№	Guruhlarning nomlanishi	Quyvon bosh soni	Quyvonlarni yoshi, kun	O'rtacha tirik vazni, g	Quyvonlarning saqlanuvchanligi,	Tajriba so'ngida o'rtacha tirik vazni, g	O'rtacha kunlik o'sish, g	EQI, ball
1	Sog'lom, nazorat	10	14	130	100	750	38,75	214,3
2	Zararlantirilib, davolanmagan	10	14	130	30	350	13,75	-
3	Tajriba, Introcox oral	10	14	130	100	665	33,43	190,0
4	Tajriba, Amprolium plus - chiktonik	10	14	130	100	612	30,12	174,8

Tadqiqotlar natijasida preparat eymeriozning qo'zg'atuvchisining endogen bosqichida ta'sir etib, uning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi yana bir bor isbotlandi. O'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lumki, quyvonlar orasida uchraydigan kasalliklarning oldini olish, davolash, turli xil dori vositalari va ularni almashlab qo'llash hamda kasalliklarni bartaraf etish kabi tadbirlar o'tkazish muhim ahamiyat kasb etishi keltirilgan.

Intracox oral preparati qo'llanilgan quyvonlar orasida eymeriozga xos ayrim belgilar kuzatildi, quyvonlar orasida o'lim qayd etilmadi, saqlanuvchanligi 100% ni, kunlik tana vaznining o'rtacha ortishi 33,43 grammga, eymeriozga qarshi indeks esa 190 ballni tashkil etganligi aniqlangan.

Ushbu bobda Intracox oral bilan davolangandan keyin quyvonlar qonining eritrotsitkar ko'rsatkichi 3 kun davomida tekshirilganda 4,6-5,0-5,6 mln/mkl gacha, gemoglobinning miqdori 104-106-112 g/l gacha, umumiy oqsillar 48,4-49,7-50,6 g/l gacha, glukoza 4,0-4,21-5,2 mol/l gacha oshganligi, leykotsitlar miqdori esa 11,7-10,5-9,0 ming/mkl gacha pasayib borganligi quyvonlar qonida gematologik ko'rsatkichlari koksitoksga nisbatan ijobiy xarakterga ega bo'lib, quyvonlarga Intracox oral preparati 1 ml miqdorda 1000 ml suvga eritilib, 2 kun davomida uzluksiz berilganda esa preparatning samaradorlik ko'rsatkichi 95 % ni tashkil qilgan.

To'rtinchi bobning "Quyvonlar eymeriozini kimyoprofilaktikasidan so'ng qondagi gematologik ko'rsatkichlar" deb nomlangan uchinchi qismida Intracox oral bilan davolangandan keyin 1-guruh quyvonlari qonining eritrotsitlar ko'rsatkichi 3 kun davomida tekshirilganda 4,6-5,0-5,6 mln/mkl gacha ko'tarilib, sog'lom quyvonlar qonidagi ko'rsatkichgacha chiqib bordi. Ushbu guruhdagi quyvonlar qonida leykotsitlar miqdori 3 kun davomida tekshirilganda 11,7-10,5-9,0 ming/mkl gacha pasayib bordi va sog'lom quyvonlar qonidagi me'yorga qaytdi.

Intracox oral bilan davolanganda gemoglobinning miqdorida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan, 104-106-112 g/l gacha ko'tarilib, me'yorga qaytganligi namoyon bo'ldi. Umumiy oqsillardagi o'zgarishlar ham ijobiy ko'rinishga ega bo'lib, 48,4-49,7-50,6 g/l gacha ko'tarilish bilan harakterlandi. Ushbu guruh quyonlarning qonidagi glukozada ham o'sish yuz berdi, 4,0-4,21-5,2 mol/l gacha oshganligi aniqlandi, bir so'z bilan aytganda eymeriostatik Intracox oral bilan davolangan guruhdagi quyonlar qonida gematologik ko'rsatkichlar ijobiy xarakterga ega bo'lgan (6 - jadval).

Eymeriostatik koksitoks bilan ikki kun davomida davolangan ikkinchi guruh quyonlari qonidagi gematologik ko'rsatkichlar quyidagicha xarakterga ega bo'ldi. Eritrotsitlarning miqdori 4,5-4,8-5,0 mln/mkl gacha ko'tarilib, me'yorga yaqinlashib qolganligi kuzatilib, qondagi leykotsitlar esa 11,7-10,5-9,0 ming/mkl gacha kamayganligi namoyon bo'ldi. Gemoglobin 96-103-105 g/l gacha ortib bordi. Umumiy oqsil 47,3-47,9-48,7 g/l holatida aniqlandi. Glukoza esa 3,9-4,1-4,7 g/l miqdorda ekanligi aniqlandi. Eymeriostatik koksitoks bilan davolangan ikkinchi guruhdagi ko'rsatkichlar birinchi guruhga nisbatan biroz pastroq bo'lsa ham, quyonlar qonidagi ijobiy o'zgarishlarni namoyon qildi va kasallikdan tuzalish holati kuzatildi.

Uchinchi davolanmagan nazorat guruhi quyonlarida qonning gematologik o'zgarishlari eritrotsitlar, gemoglobin, umumiy oqsil, glukoza miqdori kun sayin kamayib bordi, leykotsit miqdori esa ortib ketishi bilan xarakterlandi (6- jadval).

#### 6 - jadval

#### Quyvon eymeriozida qonning gematologik tekshiruv natijalari (davolashdan keyin)

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Me'yori	1 guruh (tajriba)			2-guruh (tajriba)			3-guruh (nazorat)		
			Intracox oral			Koksitoks			Preparat berilmadi		
			T e k s h i r i s h k u n l a r i								
			2	4	6	2	4	6	2	4	6
Eritrosit	mln/mkl	5,0-5,8	4,6± 0,23	5,0± 0,32	5,6± 0,23	4,5± 0,18	4,8± 0,11	5,0± 0,36	4,9± 0,13	4,7± 0,21	4,7± 0,28
Leykotsit	ming/mkl	5,0-12,5	11,7± 0,98	10,5± 1,01	9,0± 0,56	11,1± 0,10	10,6± 0,63	10,4± 0,89	12,8± 0,52	13,6± 0,68	13,9± 1,03
Gemoglobin	g/l	105-125	104± 3,56	106± 3,8	112± 4,3	96± 2,8	103± 2,5	108± 2,9	99± 1,9	96± 3,1	93± 3,3
Umumiy oqsil	g/l	62-68	48,4± 1,87	49,7± 2,1	50,6± 3,2	47,3± 2,9	47,9± 2,6	48,7± 1,9	47,8± 1,89	45,3± 2,26	44,5± 3,11
Glukoza	mol/l	4,16-5,27	4,0± 0,19	4,21± 0,22	5,2± 0,18	3,9± 0,12	4,1± 0,13	4,7± 0,25	3,1± 0,21	2,43± 0,07	2,33± 0,09

Ushbu bobda xikol zotli quyonlarda invaziyaning ekstensivligi 52,7%, kaliforniya zotli quyonlarda 49,0%, velikan zotli quyonlarda 56,3%, shinshilla zotli quyonlarda esa 60,0 foizni tashkil etganligi keltirilgan bo'lib, invaziya ekstensivligining mavsumiy dinamikasi, yilning bahor faslida 65,0%, yozda 40,0%, kuzda 35,0%, qishda esa 75,0 %ni tashkil etishi tadqiqotlarda ma'lum

bo'lgan. O'lgan quyonlar yorib ko'rilganda ichak shilliq pardalarda gemorragik yallig'lanishlar, nuqtali qon quyilishlar, ayniqsa ko'r ichakda kuchli yallig'lanish, kichik-klinik yarachalar, nekrotik – o'choqlar, ichak bo'shlig'ida ivigan qon laxtalari to'planganligi aniqlangan.

Ushbu bobning to'rtinchi "Tadqiqot natijalarining iqtisodiy samaradorligi" qismida qo'llanilgan preparatning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatilgan bo'lib, bunda ushbu ko'rsatkich 95 % dan yuqori ekanligi qayd etilgan bo'lib, sarflangan har bir so'm sarf xarajatining iqtisodiy samaradorligi 5 so'm 29 tiyinni tashkil etgan.

## XULOSALAR

1. Samarqand va Farg'ona viloyatlarining ayrim xo'jaliklarida quyonlar eymeriozining invaziya ekstensivligi xikol zotli quyonlarda 52,7%, kaliforniya zotida 49,0%, velikan zotida 56,3%, mahalliy zotli quyonlarda esa 60,0 foizni tashkil etdi.

2. Quyonlar eymeriozining tarqalish ko'rsatkichlari yil mavsumlari bo'yicha tahlil qilinganda bahor faslida 65,0 %, yozda 40,0 %, kuzda 35,0 %, qish faslida esa 75,0 foizni tashkil etdi.

3. Eymerioz bilan kasallanib nobud bo'lgan quyonlarning gavdasi patologoanatomik yorib ko'rilganda ichak shilliq pardalarida gemorragik yallig'lanish, nuqtasimon qon quyilish, ichakda ivigan qon laxtalari, ayniqsa ko'richak va jigarda kuchli yallig'lanish, kichik yarachalar, nekrotik o'choqlar uchrashi kuzatildi.

4. Quyonlar eymeriozini davolash maqsadida intracox oral preparatini 1000 ml suvga 1 ml miqdorda eritilib, 2 kun davomida uzluksiz qo'llanilganda, preparatning samaradorligi 95 foizni tashkil etishi aniqlandi.

5. Intracox oral preparati bilan davolangan quyonlar qoni 3 kun davomida gematologik va biokimyoviy tahlil qilinganda eritrositlar miqdori 4,6-5,0-5,6 mln/mkl, gemoglobinning miqdori 104-106-112 g/l, umumiy oqsil 48,4-49,7-50,6 g/l, glyukoza 4,0-4,21-5,2 mol/l ga oshganligi, leykotsitlar miqdori 11,7-10,5-9,0 ming/mkl ga pasayib, quyonlar organizmida ijobiy jarayonlar kechayotganligi aniqlandi.

6. Intracox oral eymeriostatik preparati qo'llanilganda quyonlarning saqlanuvchanligi 100% bo'lib, tana massasining kunlik o'rtacha 33,43 g ortishi, eymeriozga qarshi indeks esa 190 ballni tashkil etdi.

7. Quyonlar eymeriozini oldini olish maqsadida quyonxonalarda 5 % li NaCl eritmasi, 3% li formalin, malaxit ko'ki 0,2-0,5 g/m<sup>2</sup>, brilliant yashili 0,1-0,2 g/m<sup>2</sup> bilan birga qo'llanilganda ijobiy samara berishi aniqlandi.

8. Quyonlar eymeriozini davolashda guruhli kimyoprofilaktika uchun qo'llanilgan intracox oral preparatini qo'llash natijasida sarf qilingan 1 so'm hisobiga, 5 so'm 29 tiyin iqtisodiy samara olindi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.06/29.10.2021.V.139.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ  
ИНСТИТУТЕ ВЕТЕРИНАРИИ  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ ВЕТЕРИНАРИИ**

**ХУШНАЗАРОВ АЛИШЕР ХУДОЙБЕРДИ УГЛИ**

**РАСПРОСТРАНЕНИЕ, ДИАГНОСТИКА И ХИМИОПРОФИЛАКТИКА  
ЭЙМЕРИОЗА КРОЛИКОВ**

**03.00.06 – Зоология**  
*(ветеринарные науки)*

**АВТОРЕФЕРАТ**  
диссертации доктора философии (PhD) по ветеринарным наукам

**Самарканд-2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером № B2023.2.PhD/V83.

Диссертация доктора философии (PhD) по ветеринарным наукам выполнена в Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий.

Автореферат диссертации доктора философии (PhD) размещен на веб-странице Научного совета ([www.viti.uz](http://www.viti.uz)) и в информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)) на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)).

**Научный руководитель:**

**Давлатов Равшан Бердиевич**  
доктор ветеринарных наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Гафуров Ақтам Гафурович**  
доктор ветеринарных наук, профессор

**Курбанов Феруз Энатиллаевич**  
доктор философии (PhD) по ветеринарным наукам

**Ведущая организация:**

**Научно-исследовательский институт  
Микробиологии, вирусологии, инфекционных и  
паразитарных заболеваний имени Л.М.Исаева  
при Самаркандском государственном  
медицинском университете**


Защита состоится «18» 03 2025 г. в 14<sup>00</sup> часов на заседании научного совета PhD.06/29.10.2021.V.139.01 при Научно-исследовательском институте ветеринарии, по адресу: 141500. Тайлякский район Чорогбон СМГ. Янги Тайляк 1, дом 67.Тел.:(99866) 666-56-30; Fax;+(99866) 666-56-76 e-mail: [nivi@vetgov.uz](mailto:nivi@vetgov.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Научно-исследовательского института ветеринарии (зарегистрирована за № 4703). (Адрес: 141500. Тайлякский район Чорогбон СМГ. Янги Тайляк 1, дом 67.Тел.:(99866) 666-56-30; Fax;+(99866) 666-56-76 e-mail: [nivi@vetgov.uz](mailto:nivi@vetgov.uz)).

Автореферат разослан «05» 03 2025 года.  
(протокол рассылки № 7 от 05.03, 2025 г.)



  
**Б.А.Элмуродов**  
Председатель научного совета по  
присуждению учёных степеней, доктор  
ветеринарных наук, профессор

  
**Ф.С.Пулотов**  
Учёный секретарь научного совета по  
присуждению учёных степеней, доктор  
философии (PhD) по ветеринарным  
наукам, старший научный сотрудник

  
**Г.Х.Мамадуллаев**  
Председатель научного семинара при  
научном совете по присуждению учёных  
степеней, доктор ветеринарных наук,  
старший научный сотрудник

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В настоящее время спрос мирового населения на продукцию животноводства, в частности на кроличье мясо, диетические продукты питания, изготовленные из него, а также на шерстяное и кожное сырье, с каждым годом растет. Удовлетворение этого спроса, создание новых рабочих мест, увеличение объемов производства кроличьего мяса являются важными задачами. «Если не проводить своевременное лечение кроликов, заболевших эймериозом, в течение 15–20 дней может погибнуть до 90% поголовья»<sup>1</sup>. В связи с этим, выявление инвазионных заболеваний кроликов, разработка мер по их лечению и профилактике в различных регионах, имеет важное научное и практическое значение.

В мировом масштабе повышение рентабельности кролиководства стало возможным благодаря разработке технологий эффективного использования кроликов на фермах и в частных хозяйствах, увеличению объемов производства кроличьей продукции и интенсивному развитию отрасли. В этом контексте особое значение имеют различные породы кроликов, разводимые на фермах в разных регионах мира. «В связи с этим своевременное выявление паразитов, встречающихся у различных пород кроликов, их эффективное лечение и проведение профилактических мероприятий является актуальной задачей»<sup>2</sup>.

В нашей стране на государственном уровне рассматриваются меры по обеспечению продовольственной безопасности за счет увеличения производства продукции животноводства, широкого внедрения современных методов производства, создания цепочки добавленной стоимости, развития кооперационных отношений, государственной поддержки животноводческой отрасли и ее направлений, а также эффективного использования современных информационно-коммуникационных технологий и достижений науки. Анализ текущего состояния животноводческой отрасли показывает, что в республике функционируют 254 кролиководческих хозяйства. На основе передового зарубежного опыта уделяется внимание увеличению доли продукции, производимой в кролиководческом секторе, повышению конкурентоспособности кроличьего мяса на внутреннем и внешнем рынках, приведению местной продукции в соответствие с международными стандартами качества, пересмотру рекомендованных минимальных норм потребления кроличьего мяса, а также развитию культуры здорового питания среди населения. В рамках государственной политики ставится задача дальнейшего развития кролиководства и увеличения объемов производства продукции на основе кооперативной системы.

---

